

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi


So'nggi yigirma yil mobaynida jahon iqtisodiyotining tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar sohasida jadal o'sish kuzatilmoqda. Bu ishlab chiqarishning murakkabligi, bozorni yangi mahsulotlar bilan to'yinganligi, innovatsion texnologiyalarning jadal o'sishiga bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sohasining jadal o'sishi yangi faoliyat turlari va investitsion imkoniyatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda kredit-moliyaviy, axborot, telekommunikatsiya, tibbiy, intellektual va ko'ngilochar xizmatlar bozorlari rivojlanmoqda.

2019-yil 1-mart holatiga ko'ra viloyatimizda 7,4 mingta korxona va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda, bu faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida (11,8 ming birlik) 62,6 % ni tashkil etadi. Ularning o'sishi o'tgan yilga nisbatan 18,2 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2018-yil 1-mart holatida xizmatlar sohasida 6,2 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiyligi tarkibida savdo sohasida - 31,0 %, yashash va ovqatlanish sohasida – 11,5 %, tashish va saqlash - 6,1 %, axborot va aloqa – 1,8 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,3 %, boshqa turlarda - 46,3 % korxona va tashkilotlar o'rinni egallagan.

**2019-yil 1-mart holatiga korxona va tashkilotlarning  
umumiyl sonida xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotganlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibida eng yuqori ulushni savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi (32,3 %) tashkil etadi.


Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 6,6 % ga yetdi.

**2019-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat**

## ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Sog'lijni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,2 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,3 % ga teng bo'ldi.


**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 1,1 mingtaga ko'paydi.

Shundan savdo faoliyati bilan shug'ullanadigan korxona va tashkilotlarda o'sish sur'ati 22,7 % ni tashkil qildi, ularning soni 440 taga ko'paydi. 2019-yil 1-mart holatiga ko'ra ushbu sohada yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,4 mingtaga yetdi.

Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning o'sishi (27,1 %) kuzatilmogda, ularning soni 57 taga oshdi.


Sog'lijni saqlash sohasida va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'sishi (24 taga), ularning o'sishiga (11,5 %) ta'sir ko'rsatdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 116,8 mlrd. so'mga oshib, 650,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,4 % ni tashkil etdi.



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari etakchi o'rinni egallaydi. Ularning ulushi 34,6 % ni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan hajmi 33,2 mlrd. so'mga oshdi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Bundan tashqari, eng katta ulush moliyaviy xizmatlar, transport xizmatlari, aloqa va axborotlashtirish, yashash va ovqatlanish xizmatlarda, shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarda kuzatiladi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>650,7</b>	<b>111,4</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	31,5	96,8
Moliyaviy xizmatlar	115,4	179,1
Transport xizmatlari	115,9	96,4
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	96,1	101,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	27,5	104,1
Savdo xizmatlari	225,3	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	13,8	102,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	24,9	108,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	6,3	126,4
Ijara xizmatlari	13,5	118,1
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	11,8	104,6
Shaxsiy xizmatlar	17,9	100,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	21,4	121,1
Boshqa xizmatlar	25,5	91,0

Respublikamizda, shuningdek viloyatimizda olib borilayotgan kredit siyosati bo'yicha islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 179,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasida (126,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (121,1 %), ijara xizmatlari (118,1 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar da (108,6 %) qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



**Ma'lumot uchun:** 2018-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlarning o'sishi me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida - 422,1 % ni, moliyaviy xizmatlarning o'sishi 32,2 % ni, ta'lif sohasida - 31,5 % ni, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 21,0 % ni, transport xizmatlari – 13,0 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinn tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida savdo xizmatlari hajmi 225,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi ulushi 34,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 33,2 mlrd. so'mga oshdi.


Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-fevral oylarida uning ulushi 86,0 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 7,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi hajmida 6,3 % ni tashkil etdi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida

## savdo xizmatlari tarkibi, %



■ Avtomobillar va mototsikllarni taʼmirlash boʼyicha xizmatlarni qoʼshgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo boʼyicha xizmatlar

■ Ulgurji savdo boʼyicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo boʼyicha xizmatlar

Respublikamizning iqtisodiy rivojlanishida transport muhim rol oʼynaydi. Transport xizmatlari umumiyligi hajmining qariyb yarmi avtomobil transportida yuklar va yoʼlovchilarini tashish xizmatlari hisobiga toʼgʼiri keladi.

Avtomobil transport turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning manevriligi va koʼrsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng koʼp talabga ega hisoblanadi. Transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transportining ulushi 82,9 % ni tashkil etadi.

## 2019-yil yanvar-fevral oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %



Yo'lovchi tashish avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmida salmoqli qismini egallaydi. 2019 yil yanvar oyida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 69,8 % ga yetdi.

Avtotransportda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiyligi hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 30,2% ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 115,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 179,1 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi.

## 2019 yil yanvar oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, mlrd.so'm



Ta'lim tizimining rivojlanishi O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.



Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, avvalo, inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'nnaviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 24,9 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 8,6 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining o'sish sur'ati 4,1 % ga o'sdi, hajmi esa 4,7 mlrd. so'mga oshdi va 27,5 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi 85,8 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 14,2 % ni tashkil etdi.

### **2019-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %**



2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasiga muvofiq ijtimoiy himoya qilish va fuqarolar sog'lig'ini saqlash tizimini takomillashtirish O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

2019-yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 6,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi, o'sishi 126,4 % ga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 673,5 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,5 % ni tashkil etdi.

Ko'plab xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining zamonaviy tarkibiy qayta qurilishini muvaffaqiyatli yakunlash uchun zaruriy sharoitdir.

**Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
(71)230-84-37  
0(436)-223-63-31**